

4. Приложение № 1 к Постановлению Кабинета Министров от 15 сентября 2017 года №728. Положение о Едином портале интерактивных государственных услуг Республики Узбекистан.

5. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана. 26.12.2025. <https://president.uz/ru/lists/view/8834>

6. Мирзиёев Ш.М. Обеспечение социальной справедливости и развитие цифровой экономики. – Ташкент, 2023.

7. Мирзиёев Ш.М. Стратегия развития Нового Узбекистана. – Ташкент: Узбекистон, 2022.

8. Агентство статистики Республики Узбекистан. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан. – Ташкент, 2024.

MOLIYAVIY TEXNALIGIYALAR VA KRAUDFANDING TARMOQLARIGA SUN'IY INTELEKTNING TA'SIRI

Ruzimatova Shaxzoda

TDIU Moliya fakulteti talabasi

M.A.Sharapova

TDIU "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasida dotsenti, PhD

Moliyaviy texnologiyalar va kraudfanding zamonaviy iqtisodiyot sharoitida jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan va moliyaviy munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqayotgan mexanizmlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamlashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, internet infratuzilmasining kengayishi hamda aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining ortishi ushbu sohaning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) an'anaviy bank va moliya tizimidagi operatsiyalarni raqamli formatga o'tkazish, xizmat ko'rsatish tezligi va qulayligini oshirish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, onlayn to'lovlar, masofaviy bank xizmatlari, raqamli kreditlash va innovatsion to'lov platformalari aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish, ya'ni moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchilar doirasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Kraudfanding esa moliyaviy texnologiyalarning amaliy ifodasi sifatida kapital jalb qilishning muqobil shaklini taqdim etadi. U an'anaviy moliya institutlariga murojaat qilmasdan turib, internet orqali keng jamoatchilik mablag'larini safarbar etish imkonini yaratadi. Xususan, startup loyihalarni amalga oshirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslarni moliyalashtirishda kraudfandingning ahamiyati ortib bormoqda.

Kraudfanding va moliyaviy texnologiyalar moliya bozorining muhim tarkibiy qismi bo'lib, bugungi kunda ushbu sohalarga ham sun'iy intellektdan foydalanilmoqda.

1- jadval**Kraudfandingda sun'iy intellektdan foydalanishning imkoniyat va xavflari**

Ta'sir yo'nalishi	Istiqbollari (imkoniyatlari)	Xavflar va muammolari
Loyiha muvaffaqiyatini bashorat qilish	Loyiha matnini tahlil qilish orqali muvaffaqiyat ehtimolini erta aniqlash ¹⁹⁵ .	Loyihani noto'g'ri baholash, muvaffaqiyat ehtimolini xato tahlil qilish.
Firibgarlikni aniqlash	Tranzaksiyalarni real vaqtda tahlil qilish, shubhali bog'lanishlarni aniqlash ¹⁹⁶ .	Haqiqiy firibgarliklarni o'tkazib yuborishi mumkin. Shaxsiy ma'lumotlarning sizib chiqish xavfi.
Platforma jarayonlarini avtomatlashtirish	Chatbotlar orqali maslahat, matn va tasvirlarni avtomatik tarjima qilish .	Avtomatlashtirilgan tizimlarga ko'r-kona ishonish xodimlarning tekshirish qobiliyatini susaytiradi .

Yuqoridagi jadvalda kraudfanding platformasida sun'iy intellekt qo'llanilishining istiqbollari va xavflari keltirilgan. Jadvalga ko'ra sun'iy intellekt kraudfanding platformalari faoliyatining samaradorligini oshirdi, xavflarni kamaytirdi va foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratishda muhim rol o'ynadi. Sun'iy intellekt algoritmlari kraudfanding platformalaridagi loyiha ma'lumotlarini tahlil qiladi, bu esa investorlarning mushkulini osson qiladi. Firibgarlikni aniqlaydi, natijada, platforma xavfsizligi oshadi, foydalanuvchilar savollariga avtomatik javob beradi, ya'ni tun-u kun xizmatni ta'minlaydi. Ammo, har doim ham sun'iy intellekt qarorlariga ishonib qolish katta xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Jumladan, sun'iy intellekt noto'g'ri algoritmlangan yoki yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmasa, loyihalarni noto'g'ri baholashi, investorlar uchun moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi. Sun'iy intellekt katta miqdordagi foydalanuvchilarning ma'lumotlarini yig'adi, bu esa shaxsiy ma'lumotlar sizib chiqishi yoki kiberhujumlar xavfini oshiradi .

2- jadval**Raqamli texnologiyalarni joriy etishda sun'iy intellektdan foydalanishning imkoniyat va xavflari**

Ta'sir yo'nalishi	Istiqbollari (imkoniyatlari)	Xavflar va muammolari
Kreditlash	Baholash imkoniyati. Erta ogohlantirish tizimlari ¹⁹⁷	"Qora quti" muammosi
Firibgarlikni aniqlash	Biometrik identifikatsiya. Anomaliyalarni aniqlash.	Soxta ma'lumotlar
Xavfzilik	Kiberhujumlarni bashorat qilish .	Ma'lumotlar oqishi

Yuqoridagi jadvalga ko'ra sun'iy intellekt yordamida moliyaviy texnologiyalarning kreditlash sohasida muqobil ma'lumotlar asosida kredit tarixi bo'lmagan foydalanuvchilarni baholash imkoniyatini va real vaqt rejimida monitoring orqali erta ogohlantirish tizimi yaratildi. Firibgarlikni aniqlash

¹⁹⁵ <https://www.mdpi.com/3671008>

¹⁹⁶ <https://doi.org/10.37965/jait.2025.0834>

¹⁹⁷ <https://doi.org/10.52783/jisem.v10i60s.13275>

sohasida biometrik identifikatsiya orqali xavfsizlikni kuchaytiradi, anomaliyalarni aniqlaydi ya'ni firibgarlikni real vaqtda topadi va oldini oladi, masalan, sun'iy intellekt modellari AUROC 96,5% gacha aniqlikka erishgan. Xavfsizlik sohasida esa kiberhujumlarni bashorat qiladi, hujum sodir bo'lishidan oldin uning ehtimolini aniqlaydi.¹⁹⁸

Demak, sun'iy intellekt moliyaviy texnologiyalarning ichki jarayonlarini avtomatlashtirish va xavflarni boshqarish, shuningdek foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish va yangi moliyaviy xizmatlar yaratish usullarini ham butunlay yangilamoqda, ya'ni moliyaviy bozorlarni tahlil qiladi, narxlar o'zgarishini pragnoz qiladi, shubhali tranzaksiyalarni real vaqt rejimida aniqlaydi. Misol uchun AQSh ning JPM organ Chase kompaniyasida sun'iy intellekt yuridik hujjatlarni tahlil qiluvchi hisoblanadi. Bu orqali yuridik hujjatlarni tahlil qilish uchun ketadigan 360000 soatlik mehnatni tejagan. Firibgarlikni oldini olish esa 50 % ga tezlashgan¹⁹⁹.

Shunga qaramay, bir qator xavflarni ham yuzaga keltiradi, "Qora quti" muammosi, ya'ni nima uchun kredit berilmaganini tushuntirib berilmasa, mijozlar noroziligi va qonuniy muammolar kelib chiqishi mumkin.²⁰⁰ Sun'iy intellektning o'zi tomonidan yaratilgan soxta video va ovozlar orqali tizimni aldash xavfi va ma'lumotlar bazasiga kirishi orqali maxfiy ma'lumotlarning sizib chiqish xavfi mavjud. Ushbu muammolarga yechim sifatida, inson nazorati va sun'iy intellektni birgalikda qo'llash ya'ni faqat algoritmlarga emas, mutaxassislar tekshiruvidan ham foydalanish zarur. Firibgarlikka qarshi ko'p bosqichli tekshiruvlarni amalga oshirish ya'ni moliyaviy texnologiyalardan foydalanishdan yoki kraudfanding platformalariga loyihalarni joylashtirishdan oldin shaxsni tasdiqlash, hujjatlarni va moliyaviy ma'lumotlarni qayta tekshirish lozim. Har bir foydalanuvchilar va investorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish orqali xavflar va firibgarlik belgilaridan qutilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, eng samarali yechim bu texnologiya, inson nazorati, qonunchilik va xavfsizlik kombinatsiyasi hisoblanadi. Moliyaviy texnologiyalar va kraudfanding iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, investitsiya faolligini kuchaytirish hamda raqobat muhitini shakllantirishda muhim omil sifatida baholanadi. Ular zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni jalb qilish va taqsimlashning samarali, shaffof va innovatsion mexanizmlarini ta'minlamoqda.

¹⁹⁸ <https://EconPapers.repec.org/RePEc:asi:aeafjr:v:15:y:2025:i:11:p:1694-1713:id:5660>

⁶ <https://www.thewallstreetschool.com/blog/ai-in-banking-jpmorgan/>

²⁰⁰ <https://doi.org/10.52783/jisem.v10i60s.13275>